

TIBBIY BIRLIKLARNING LEKSIK QAMROVI VA ULARNING XALQ JONLI TILI BILAN BOG'LIQLIGI

Navruzova Muyassar Gaybullayevna,
Buxoro davlat universiteti boshlang'ich ta'lim kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

O'zbek folklor tilida turli janrlar qamrovida tibbiy sema bilan bog'liq xalq ijodi namunalari borligi aniqlandi. Turli hashoratlar, ilon, qoraqurt, chayon kabilar chaqqanda o'qiladigan afsun-duolar, qay darajada bo'lmasin, hozirga qadar saqlanib qolgan, ularni to'plash, ma'lum to'plamlar holida chop etish lingvofolklorshunoslarimizning hozirgi kundagi muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib maqolada xalq tilidagi afsun-duolar, ularning mazmuni va turlari yoritilgan. Xalq tilidagi afsun-duolardan namunalar keltirilgan. Bundan tashqari, chayon chaqqanda, gulafshon chiqqanda va aksa urilganda aytiladigan afsun-duolar mazmuni izohlangan.

Kalit sozlar: folklor, duolar, afsun-duolar, diniy afsun-duolar, sof xalqona afsun-duolar, gulafshon, aksirish.

ЛЕКСИЧЕСКИЙ ПОКРЫТИЕ МЕДИЦИНСКИХ ЕДИНИЦ И ИХ СВЯЗЬ С ЖИВЫМ ЯЗЫКОМ НАРОДА

Наврузова Муясар Гайбуллаевна,
Бухарский государственный университет доцент кафедры начального образования,
Доктор философии в филологии (PhD)

Особенности заклинаний как самостоятельного жанра фольклора проявляются в композиции их образов и магии слова в изречениях против него. Эти изображения имеют разный внешний вид и качество в зависимости от того, на кого или на что направлено заклинание. Установлено, что узбекский фольклорный язык содержит образцы народного творчества, связанные с медицинской тематикой, в различных жанрах. Заклинания, произносимые при укусах различных насекомых, змей, червей, скорпионов и т. д., в той или иной степени сохранились до наших дней, и сбор их и публикация в виде определенных сборников является одной из важных задач наших лингвистов. На основе этого в статье описаны заклинания в народном языке, их содержание и виды. Приведены примеры заклинаний на просторечии. Кроме того, разъясняется значение заклинаний, которые произносятся при укусе скорпиона, при вылете гулафшана и при попадании стрелы.

Ключевые слова: фольклор, молитвы, заговоры, религиозные заговоры, народные заговоры, гулафшан, чихание.

LEXICAL COVERAGE OF MEDICAL UNITS AND THEIR RELATIONSHIP WITH THE LIVING LANGUAGE OF THE PEOPLE

Navruzova Muyassar Gaibullayevna,
Bukhara State University associate professor of elementary education department, Doctor of
Philosophy in Philology (PhD)

The peculiarities of spells as an independent genre of folklore can be seen in the composition of their images and the magic of words in the sayings against it. These images have different appearance and quality depending on who or what the spell is directed against. It was found that the Uzbek folklore language contains examples of folk art related to the medical theme in the scope of various genres. Incantations recited when bitten by various insects, snakes, blackworms, scorpions, etc., have been preserved to this day, to any extent, and collecting them and publishing them in the form of certain collections is one of the important tasks of our linguists. Based on this, the article describes spells in the folk language, their content and types. Examples of incantations in the vernacular are given. In addition, the meaning of incantations that are said when a scorpion stings, when a gulafshan comes out, and when an arrow hits is explained.

Key words: folklore, prayers, spells, religious spells, folk spells, gulafshan, sneezing.

Kirish. O'zbek folklorining leksik tarkibi uning janrlari orqali ifodalanadi. Ajdodlarimizning umidbaxsh orzularini o'zida mujassam etgan folklor janrlaridan biri afsun-duolar hisoblanadi. Qadimiy tasavvurlar asosida yuzaga kelgan, so'zning sehr-jodu kuchiga egaligi bilan bog'liq bo'lgan afsun-duolar mazmunan teranligi, tarixiy asoslari juda olis zamonlarga borib taqalishi, o'ziga xos

hayotiy-maishiy vazifalari va xalq tabobatida ijro o'rniga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. O'zbek folklorshunosligining filologik yo'nalishdagi fan sifatida shakllanishi H.Zarifov ilmiy faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. U folklorshunoslik amaliyotida birinchi bo'lib qoqimchi, azayimxon va baxshilarning davolash amallariga doir etnofolkloristik materiallarni qaytarma, badik kabi namunalarini yozib olgan. Qadimdan sof ilmiy meditsina vujudga kelmagan davrlarda kishilar turli xildagi kasalliklardan, tasodifiy falokatlar (ilon, qoraqurt, chayon chaqishi) kabilardan tabobatdagi afsun-duolar orqali qutulishga harakat qilganlar. Folklorshunos olimi S.Mirzayevaning "O'zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati" nomli monografiyasida xalq afsun-duolari quyidagicha tasniflanadi:

a) diniy afsun-duolar. Bu turdagi afsun-duolar kishilar orasida keng tarqalgan bo'lsa ham, biroq ular tarixan xalq afsun-duolaridan farqlanib turadilar. Diniy afsun-duolar "Qur'on" va boshqa muqaddas kitoblardan olingan bo'lib, asosan, o'qimishli kishilar-mullalar, din ulamolari, eshon va otinbibilardan tomonidan o'qilgan.

b) sof xalqona afsun-duolar. Bular o'z ildizlari jihatidan xalqning ruhlari, dastlabki ajdodlar haqidagi e'tiqodiy qarashlari bilan aloqadorlikda vujudga kelganlar. Ammo keyinchalik, bir tomondan, uzoq davrlar mobaynida turli diniy tasavvurlar tazyiqi ostida, ikkinchi tomondan, yetmish yildan ortiqroq davom etgan sho'ro mafkurasi g'oyasi ta'sirida xalq afsun-duolarining kattagina qismi istifoda etilmay asta-sekin unutila boshlandi. Bu xildagi afsun-duolar ilmiy adabiyotlarda "

Xalq afsun-duolariga xos janr alomatlaridan yana biri ularning hamma vaqt buyruq (imperativ) ohangida ijro etilishi sanaladi. Darhaqiqat, o'zbek xalqi o'rtasida keng istifoda etiladigan istalgan afsun-duoni olmang, unda hamma vaqt keskin buyruq ohangi mavjudligini ko'ramiz. Masalan, qoraqurt chaqqanda o'qiladigan afsun-duodan keltirilgan quyidagi parchada ham asar matni keskin buyruq ohangi bilan yakunlanadi:

Ola g'undol, balo g'undol, Kal keldi, kadi keldi.

Payg'ambarning so'zi bilan Xudoyimning amri bilan.

Arbaytigan olim o'zim, Qo'ymaytigan zolim o'zim.

Kuf-suf, chiq, kuf-suf, chiq! [8]

Keltirilgan parchadan ko'rinib turibdiki, qushnoch (davolovchi) bemor badaniga joylashib olgan ziyon-zahmat bilan kurashga kirishar ekan, eng avvalo, yaratuvchi Tangriga, keyin anbiyo va avliyolarga, turli kasb-hunarlarining pirlariga murojaat qilib, ulardan madad tilaydi.

Alas-alas, pok qilg'in, Alas-alas, pok qilg'in.

Ziyonlardan xolos et, Zahmatlardan xolos et.

Alas-alas, alas-alas, Qon tilasang qon berayin,

Jon tilasang jon berayin, Bu bechorani qo'y tegma.

Bu bechoradan ket, tegma! Alas-alas, alas-alas.

Alas-alas qilish paytida aytilgan asosiy matn yuqoridagidek bo'lib, u qushnoch o'yinlarining mazmunini oydinlashtiradi. Bu mazmun esa bemor tanasidan yomon ruhlarni quvish va uni sog'aytirishga da'vat etishdan iborat. Albatta, o'tmishda alas-alas marosimi paytida ijro etilgan aytimlar rang-barang bo'lgan. Ammo bizga qadar ular to'la va o'z shukuhida yetib kelmagan shomon folklori, "shomon aytimlari" ham deb yuritiladi [1 - 7].

Muhokamalar. Ma'lumki, ibtidoiy kishilar qoraqurt, chayon, ilon yoki boshqa hashorat, maxluqlar chaqishi oqibatida kishi tanasiga kiritilgan zaharni kasallik sifatida tasavvur qilganlar. Bu kasallik esa ma'lum bir sehrli nafasga ega bo'lgan kishilar amriga bo'ysunadi, deb qaralgan. Mana shuning uchun ham avrovchilar o'z afsunlari ijrosida o'zi yoki boshqa avliyo, pirlar madadiga bo'ysunib ziyon-zahmatni, kasallikni kishi tanasini tark etishga da'vat etadilar. Aslida esa bemor tanasiga kiritilgan zahar ta'sir kuchining sustlashishi yoki uning butunlay tanani tark etishi avrovchining xatti-harakati, so'z terapiyasi, ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatishi, uning organizmida zaharga qarshi kurashuvchi holatning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Afsun-duolarning folklorning mustaqil janr sifatidagi o'ziga xosliklari ularning obrazlari tarkibida ham unga qarshi aytiladigan aytimlardagi so'z sehrida ham ko'zga tashlanadi. Bu obrazlar esa afsun-duoning kimga yoki nimaga qarshi yo'naltirilganligiga qarab turlicha ko'rishga, sifatga ega bo'ladi [8, 67].

O'zbek xalq tabobatida ko'z og'rig'i, tish og'rig'i, qorin og'rig'i, bosh og'rig'i kabi xastaliklarga qarshi yo'naltirilgan afsun-duolarda duoxon va xastalikni keltirib chiqargan ziyon yetkazuvchi obrazlari o'rtasidagi kurash ifodalanadi.

Xullas, afsun-duoning kasallikka qarshi yo'naltirilganligi yoxud nima yoki kimni yoqlashga qaratilganligiga qarab ularda ishtirok etuvchi obrazlar tarkibi, ularning funksiyalari ham o'zgarib boradiki, bunday holat xalq tabobatiga xos bo'lgan xususiyat sanaladi.

Avrash afsunlarida muqaddas "Qur'on"dan olingan suralar bilan bir qatorda qadimiy majusiylikka

aloqador duolar ham o'qiladi. Ular bizning nazarimizda, qadimgi sanskrit tilidan qolgan bo'lib, tushunmay ijro etish oqibatida juda ko'p so'zlar noto'g'ri shakllarga tushib qolgan. Shuning uchun ularning mazmunini sharhlashning imkoni yo'q.

Ari chaqqanda o'qiladigan afsun-duoning bir namunasi folklorshunos B.Sarimsoqov tomonidan 1986-yilda Ahmadjon Soyibnazar o'g'lidan yozib olingan bo'lib, bu afsun matni tojik tilidadir: "Zara hasta zalil, rang hastu xumor, miyon bastu xalal zambur, mo badoxan, tu bokunat magazi, kuf-suf, chiq-chiq". Matnning o'zbekcha tarjimasida quyidagicha mazmunni anglatadi: "Sap-sariq ranging bor, bu rang kishining ko'nglini aynitadi, bela bo'g'iq sariq ari, biz og'zimiz bilan chaqamiz, sen esa orqang bilan chaqasan, kuf-suf, chiq- chiq".

Ma'lum bo'ladiki, afsun o'zbek tiliga tarjima qilinsa, oddiy gaplar yig'indisiga aylanib qoladi. Shuning uchun ham afsunlarning hech kim tushunmaydigan tillarda bo'lishi ularning bemorga ko'rsatadigan ruhiy ta'sir qudratini orttiradi va afsun-duolarda sehirlik, jodu qudrati saqlanishiga shohid bo'lamiz [8, 73].

Afsun-duolarning juda ham qadimiyligini tasdiqlovchi manbalardan biri ularda leksik birlik va u ifodalagan narsa o'rtasidagi bog'lanishning xarakteri hisoblanadi. Shakl va mazmun o'rtasidagi bog'liqlik munosabati, boshqacha aytganda, so'zda narsani, narsada esa so'zning o'zini qurgan. Shuning uchun ham biror narsaning nomini ayitishdan qo'rqib, uni boshqacha atamalar bilan atagan.

Chunonchi, narsaning nomi uning o'zini chaqirgan va chaqirilgan narsa kishiga ziyon yetkazadi, deb tasavvur qilingan. Xalq o'rtasida "chayon" deyish o'rniga "sariq eshak", "ilon" deyish o'rniga "xunuk narsa" deyish kabi ta'qiqlar bevosita ana shunday qarashlar bilan bog'liqdir. Xalq afsun-duolarida bunday taqiq va o'zgacha nomlashlar muayyan darajada saqlanib qolgan.

Yuqorida keltirilgan misoldagi birinchi gapda "ari" so'zi o'rnida "zard hasti zalil" deb uning rangi va zaharli ekanligiga ishora qilingan. Ikkinchi gapda esa ari "zambur" deb aytilmoqda, ammo u o'zbeklar uchun tushunarli bo'lmagan tojik tilida ifodalangan, keyin uning beli ingichkaligiga ishora qilingan. Uchinchi va to'rtinchi gaplarda esa ariga xos orqasi bilan nayza sanchish xususiyati haqida so'z yuritilgan. Demak, afsun-duolardagi so'z va u ifodalagan narsa bilan uzviy bog'liqlik tushunchasi ibtidoiy kishilar tafakkuri, ongi va dunyoqarashi bilan bog'liq holda shakllangan.

Qizilcha, suvchechak, badik va shunga o'xshash toshmalar toshganda o'tkaziladigan marosim va badik ayimlari, ularning "badik", "gulafsho", "chechak", "qizamiq" kabi atamalar bilan yuritilishi, aytimlarning mazmuni va badiiy xususiyatlari haqida B.Sarimsoqov batafsil to'xtalgan [7, 54-59].

J.Frezerning ko'rsatishicha, afsun-duolar, alas ayimlari, taqlidiy sehr ibtidoiy kishilar tasavvuricha, kishilarni turli xastaliklardan xalos etishda katta yordam beradi. Masalan, qizarganda qizil, sariq kasalda sariq narsaning, ko'z oqarganda oq narsaning xastalikni o'ziga tortib olishi foyda yetkazar emish [9, 37-38].

Xalq tabobatida ranglar bilan bog'liq bir qator kasallik nomlari mavjudki, ular ham xalq tomonidan kasallikning rangiga, holatiga, yuqumliligiga qarab nomlangan. Bugungi kunda bu atamalarning ayrimlari tibbiy terminlar ko'rinishida talqin qilinadi. Masalan, sariq (gepatit) kasalligi, sariq tana kasalligi, pes yoki oq (vitiligo) kasalligi, oq qon kasalligi, qizilcha, gul (krasnuxa) kasalligi, qizamiq (chechak) kasalligi, qizil yassi temiratki kasalligi, qorason (gangrena) kasalligi, qoraqurt kasalligi, ko'kyo'tal kasalligi bu atamalarni yana davom ettirishimiz mumkin. Bunday kasalliklarni davolash bilan bog'liq marosimlarda aytiladigan afsun-duolarda ranglarga e'tibor kuchliligini quyidagi misol vositasida ham tasdiqlab o'tish mumkin:

Safed bod, siyo bod,

Surx bod, buro bod.

Kabo't bod, zard bot,

Siyo bod, buro bod.

Kuf chiq, suf chiq,

Chiq, chiq, chiq.

Ushbu she'riy shakldagi gulafshon ayimlarida safed (-oq), siyo (-qora), surx-qizil, kabo't (-ko'k), zard (-sariq) kabi besh xil rangga murojaat qilingan. Ularning hajmi har xildir. Asosiy mazmuni esa bemor badanidan kasallikni quvish, ko'chirishga qaratilgan. Shu sababli unda "ko'ch" buyruq fe'li ko'p bora takrorlanib keladi va gulafshonning ko'chishi uchun aniq manzillar aytiladi:

Tuyalar bilan silayman,

Ko'lingga bor,

Cho'lingga bor,

Ko'ch, ko'ch, ko'ch.

Qator-qator tuyalarga bor,

Ko'ch, ko'ch, ko'ch.

Yetti xil tomiringni kesaman,
Ko'ch, ko'ch, ko'ch.
(Pichoq bilan havoda kesish harakati qilinadi).
Uch martaga qaytmasang,
Yuzing qaro, gulafshon.
Ko'rinyaptiki, gulafshonxonlik uch kun (uch marta) davom ettirilgan. Gulafshonni davolashda yetti nomdagi jonzotning qoni shifobaxsh sanalgan. Shuning uchun gulafshon aytimlarining oxirida, odatda:

Yetti xil jonzot aytaman:
To'ng'iz, kaptar, echki, qo'y,
Sigir, musicha, maymun, – deyiladi.
Shunday bo'lsa-da, gulafshonxonlar ko'pincha bemorlarni davolashda qizil tovuqning qonidan foydalanishadi. Qonga qon, jonga jon berib, bemorni “ayirboshlash”ga urinishadi:

Qon beraman, jon beraman senga,
Ko'ch, ko'ch, ko'ch.
Yetmish ikki tomiringni kesaman.
Gulafshon aytimlarida ko'pincha do'q-po'pisa, murojaat, qarg'ish ohangi yetakchilik qiladi:
Yurtingda to'y bo'libdi,
Ko'zingga qurt tushibdi.
Uying kuysin, gulafshon,
Tomiring qurisin, gulafshon.
Gulafshonni xalq jonli mavjudot ko'rinishida tasavvur qilishi bois unga aloqador matnlarda jonlantirish asosiy vazifani bajarib keladi:

Ona qizim, gulafshon,
Momo qizim, gulafshon.
Cho'llarga ket, gulafshon.
Yaxshi kelib, yaxshi ketgin, gulafshon.
Tomning tubiga ket, gulafshon.
Qo'ying qulog'iga ket, gulafshon.
Echkining shoxiga ket, gulafshon.
Yaxshi kelibsan, yaxshi ket, gulafshon.
Xalqning mifologik tasavvur-tushunchasiga ko'ra gulafshon chiqishiga Qizil momo ruhini ranjitish sabab bo'lishi aytiladi. Qizil gul bu momo ruhning manzil-makoni sanaladi. Shu tasavvur-tushunchalar gulafshon aytimlariga ham singdirilgan:

Gulafshon gulda bo'lar,
Lekin odamda bo'lar.
Cho'llarga bor, ko'llarga bor,
Qorni katta boylarga bor.
Ona qizim, gulafshon,
Bibi qizim, gulafshon.
Gulafshon inson badaniga mayda qizil toshmalar toshishi munosabati bilan aytiladigan aytimlar bo'lgani uchun ularda, asosan, qizil sifatlovchi aniqlovchili birikmalarni ko'plab uchratish mumkin.
Jumladan:

Qizil otga mindiray,
Ko'k dalaga shoshdiray.
Bundan ko'rinib turibdiki, xalqimiz so'zdan qudratli kalom dori, malham sifatida foydalangan. Davo bilan bog'liq aytimlar, duolar, kasalliklar muolajasi uchun bajariladigan marosim aytimlari shular jumlasidandir.

Qadimgi irim-sirim va inonchlarning xalq turmush tarzida saqlanib qolgan “aksa urish” bilan bog'liq xalq qarashlari va u bilan bog'liq aytim hamda alomatlarini misol sifatida keltirib o'tamiz.

E.Taylorning “Ibtidoiy madaniyat” asarida yozilishicha [10, 82-84], Afrikadagi zulus qabilasida biror kishi aksa ursa “Menga “idxlozi” (ya'ni “ajdodlar ruhi”)dan duo-olqish keldi. Ota-bobolarimning arvohlari mening huzurimga keldilar, endi men ularni alqab, duo o'qishim lozim. Chunki ular aksa urdirish orqali mendan duo talab qilmoqdalar” deb, mol-holiga baraka, bolalari va ayoliga sog'lik tilar ekan. Ularning nazarida xasta odamning aksa urishi – uning homiy ruhlar madadida kasallikdan forig' bo'layotganligidan dalolat beradi.

Zulus kohinlari esa odamni aksa urishga majbur qiladigan kuchni “Itongo” deydilar. Xalq qarashlariga ko'ra, biror odamning ichiga Itongo kirib olsa, aksa urdirar va shu bois, aksa urgan kishi darhol “Itongo!” deb uning nomini tilga olishi kerak emish.

Gvineyada esa qabila oqsoqoli aksirsa, uning qavmdoshlari darhol cho'kka tushgan, yerni tavof qilganlar va kaftlarini bir-biriga urib chapak chalib oqsoqolning sog'-salomat bo'lishini tilashgan.

Polineziyaliklar orasida esa yosh go'dak aksirsa "Sog' bo'!" – deyiladi. E. Taylor "aksirish" bilan bog'liq bu kabi irim-sirimlar jahonning ko'pgina xalqlarida mavjudligini qayd qiladi hamda uning tarixiy asoslarini ezgu va yovuz ruhlar to'g'risidagi mifologik tasavvurlarining qoldiq holda yetib kelgan ko'rinishlaridan biri, deb hisoblaydi.

Ilmiy asoslarga ko'ra, Pensilvaniya universiteti olimlari odamning aksa urishi masalasida alohida tadqiqot olib borishdi. Tadqiqot yordamida odam uchun aksa urishning nima zarurati borligi aniqlandi. Ma'lum bo'lishicha, insonning burun ichkarisida shunday mayda mikroskop yordamidagina ko'rsa bo'ladigan tolalar mavjud ekan. Xuddi o'shalar bizni aksa urishga majbur etadi. Lekin bu jarayon shunchaki sodir bo'lmaydi. Agar odamning burun ichkarisida shamollash alomatlari bo'lsa, aksa urish yordamida burundagi barcha to'qimalar funksiyasi yangilab olinadi. Unday shamollash alomati "Sinusit" deb ataladi. Bunga qadar to'qimalar faoliyati sustlashib yoki yomonlashib, odam uchun xavfli holatlarni keltirib chiqarishga moyil bo'lib qoladi. Aksa urganda xuddi o'sha xavf ortga chekinadi. Burundagi to'qimalar faoliyati me'yoriy holatiga qaytadi.

Chindan ham "aksa urish" bilan bog'liq bu kabi e'tiqodlar o'zbek xalqi orasida ham qadimdan saqlanib kelganligi bois, biror kishi aksirganda uning yonidagilar "Sog' bo'ling!", "Salomat bo'ling!" – deyilar. Eng ishonarlisi hozirda ham betob tuzalishidan oldin aksirsa, "endi sog'ayasan" – deya unga dalda beriladi.

Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi Tangachar qishlog'ida esa yosh bola bexosdan aksa ursa "Pir bo'lsin! Buva bo'lsin!" – deyilar. Bu bilan bola sog'-salomat unib-o'ssin, – degan ezgu niyat ifodalanadi [11, 194-200].

Darhaqiqat, aksirish bilan bog'liq bunday qarashlar xalqimiz tomonidan hozirgacha saqlanib qolgan. Aksa urish natijasida organizmdagi g'uborlar tashqariga chiqib, biz yengil torta boshlaymiz. Bu esa xalq tabobatida ham ilohiy kuchga ega ekanligi bilan izohlanadi va hozirgacha davom etib kelmoqda.

Xulosa. Umuman olganda, o'zbek folklor tilida turli janrlar qamrovida tibbiy sema bilan bog'liq xalq ijodi namunalari borligi aniqlandi. Turli hashoratlar, ilon, qoraqurt, chayon kabilar chaqqanda o'qiladigan afsun-duolar, qay darajada bo'lmasin, hozirga qadar saqlanib qolgan, ularni to'plash, ma'lum to'plamlar hoida chop etish lingvofolklorshunoslarimizning hozirgi kundagi muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Дьяконова В.П. Тувинские шаманы и их социальное роль в обществе. // Проблемы истории общественного сознания абрейгенов Сибири. Л., «Науки», 1981, -С.129-164.
2. Троицкая А.Л. Лечение больных изгнанием злых духов (кучурук) среди населения Туркестана. // Бюллетень САГУ», Вып. Ю.-Ташкент, 1925.-С.145-155.
3. Банзаров Д. Черная вера или шаманство у монголов, СПб., 1846; Пантусов Н. Таранчинские бакши // Изв. Туркестанск. отд. РГО. Вып. ГУ, 1907.
4. Кастанье И. Из области киргизских верований // Вестник Оренбургского учебного округа. 1912.
5. Сухарев О.А. К вопросу о генезисе профессиональных культов у таджиков и узбеков. // Памяти М.С. Андреева. Труды Инст-та истории, археологии и этнографии АН Тадж ССР, т-120, 1980.
6. Муродов О. Древние образы мифологии у таджиков долины Зерефшана. Душанбе, 1979, Муродов О. Некоторые фольклорные жанры; связанные с древними верованиями таджиков. // Фольклор и этнография, Л., 1977, - С.82-96.
7. Саримсоков Б. Узбек маросим фольклори. -Тошкент, 1986.
8. Мирзаева С. Узбек халқ афсун-дуоларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Монография. –Тошкент, 2005. С. 67.
9. Фрезер Дж. Золотая ветвь. Выпуск I. Магия и религия. -Москва, 1928.- С.37-38.
10. Тайлор Э. Первобытная культура. –Москва, 1987.– С.82-84.
11. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. –Тошкент, 2000. -Б.194-200.
12. Navruzova, M. (2023). Lexical-semantic features of some medical linguistic units. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 28(28).
13. Navruzova, M. (2023). Тиббий терминларнинг шаклланиш асослари. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 28(28).
14. Navruzova, M. (2023). Tibbiy terminlar haqida ayrim mulohazalar. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 28(28).